## SHARTNOMA № 19/07/22

2022 yil«19» 07 Asaka sh,

«Imonabegim shoes» MCHJ, (keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb nomlanadi) nomidan, Axmedov D., bir tomondan, «UzDong Won Co» AJ QK (keyingi o'rinlarda «Sotib oluvchi» deb nomlanadi), nomidan, korxona nizomiga asoslanib ish yurituvchi bosh director Sotiboldiyev Q.N., ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar xaqida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq korxona ishchi hodimlari uchun maxsus shim yetkazib berish uchun (keyingi o'rinlarda "Mahsulot" deb yuritiladi) topshirishi va Sotib oluvchi qabul qilish majburiyatini oladi. 1-ilova.

| № | Nomi | O`lchov birligi | Soni | Narxi (bir dona uchun) | Umumiy narx | Umumiy narx QQS bilan |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ishchi hodimlar uchun maxsus shim | Dona | 380 | 86 521.7391 | 32 878 260.9 | 37 810 000.00 |
| **Jami:** | | | | | | **37 810 000.00** |

### 2.YETKAZIB BERISH TARTIBI

2.1. Mahsulotni olib ketish «Sotuvchi» ning hisobiga 30% mablag' to'lov qilinganidan so'ng, 15 (o'n besh) bank ish kuni ichida Sotib oluvchining hisobidan amalga oshiriladi. Qolgan 70% mablag` to`lovi «Sotuvchi» tomonidan hisob-faktura va topshirish hamda qabul qilish dalolatnomasi asosida maxsulot taqdim etilgandan so`ng, 7 (yetti) bank ish kuni mobaynida «Sotib oluvchi» ning hisobidan amalga oshiriladi.

2.2. Maxsulotning har biri qadoqlangan xolatda «Sotib oluvchi» tomonidan berilgan o`lchamlarda bolishi ва sifati standart talablariga javob berishi shart.

2.3. Maxsulotning choklari tekis, bo`shliqlarsiz bo`lishi kerak. Xech qandan ortiqcha chiqib turgan iplari bolmasligi kerak, shimlarning bel qismida rezinalar bo`lishi lozim.

2.3. Sotuvchi maxsulotni «Sotib oluvchi» omboriga o`z xisobidan yetkazib beradi.

### 3.SHARTNOMANING UMUMIY MIQDORI VA TO'LOV TARTIBI

3.1. Shartnomaning umumiy qiymati QQS bilan 37 810 000.00 (o`ttiz yetti million sakkiz yuz o`n ming) so'mni tashkil etadi.

### 4. TARAFLAR JAVOBGARLIKLARI.

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan maxsulotni belgilangan muddatda «Sotib oluvchi» ga taqdim qilmaganligi uchun shartnomada belgilangan muddatning xar bir kechiktirilgan kuni uchun maxsulot umumiy qiymatining 0,5 foiz miqdorida (lekin maxsulot umumiy qiymatining 50 foizidan oshmagan miqdorda) jarima to'laydi.

4.2. «Sotuvchi» shartnomaning 5.1-bandida ko'rsatilgan kafolat muddati davomida maxsulotlarni sifati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z xisobidan «Sotib oluvchi» ga qoplab berish majburiyatini oladi.

4.3. «Sotuvchi» tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlarni sifati va maxsulotga qo'yilgan talabi qonun xujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshka majburiy shartlarga mos kelmasa, «Sotib oluvchi» tovarlarni qabul qilish xamda ularning xaqini to'lashni rad etib, «Sotuvchi» dan sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar kiymatining 20 foizi mikdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar xaqi to'lab ko'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab kilishga xaklidir. Sifati va maxsulotga qo'yilgan talablar lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima «Sotuvchi» dan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.4. Taraflarning ko'shimcha javobgarlik xolatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisidagi» qonuni bo'yicha amalga oshiriladi.

### 5. KAFOLAT SHARTLARI

5.1. «Sotuvchi» yetkazib berilayotgan maxsulotlarni sifatiga kafolat beradi, Kafolat muddati maxsulotni, qabul qilib olish bayoni tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) yil muddatni tashkil etadi.

5.2 Agar kafolat muddati davomida kamchiliklar (nuqsonlar, nomuvofiqlik) aniqlansa, kafolat muddati, kamchiliklarni bartaraf etish davriga mos ravishda uzaytiriladi. Kamchiliklar (nuqsonlar,

Юрисконсультант
СП «Уз-ДонгВонКо»: N165
Дата: 19.07 2022

nomuvofiqlik) bartaraf etishni «Sotuvchi» o'z mablag'lari xisobidan amalga oshiradi. Kamchiliklar (nuqsonlar, nomuvofiqlik) mavjudligi va ularni bartaraf qilish muddati taraflar o'rtasida dalolatnoma asosida rasmiylashtiriladi.

## 6. FORS – MAJOR XOLATI

6.1. Tomonlar fors-major holatlarida: tabiiy ofatlar, yong'inlar, harbiy harakatlar, davlat hokimiyati organlarining taqiqlovchi choralari bo'lgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

## 7. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'lik xolda taraflar o'rtasida kelib chikadigan barcha nizolar taraflar kelishuviga asosan xal etiladi.

7.2. Mazkur shartnoma bo'yicha kelishuvga erishilmagan takdirda nizolar belgilangan tartibda Asaka tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan xal kilinadi.

## 8. UMUMIY XOLATLAR

8.1. Agar shartnomaga yozma ravishda tuzilgan va tomonlar imzolagan qoidalar, qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilsa, ushbu qo'shimchalar amal qiladi hamda shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.2. Hech bir tomon ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma roziligisiz uchinchi tomonga o'tkazishga haqli emas.

8.3. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki asl nusxada imzolanadi, ularning bir nusxasi «Sotib oluvchi»da, ikkinchisi esa "Sotuvchi"da saqlanadi.

## 9. MAXFIYLIK

9.1. Tomonlar Mahsulotni yetkazib berish va sotish bilan bog'liq texnik, moliyaviy yoki boshqa ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash uchun bir-birlari oldida javobgar bo'ladilar.

9.2. Maxfiylik rejimi buzilgan taqdirda aybdor tomon boshqa tomonga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qoplash majburiyatini oladi.

## 10. SHARTNOMA MUDDATI

10.1. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va har ikkala tomonning majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

10.2. Shartnoma shartlari faqat boshqa tomonning yozma roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

10.3. Ushbu shartnomaga ruchka yoki qo'l yozuvi bilan amalga oshiriladigan barcha o'zgarishlar - haqiqiy emas.

## 11. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

| "Sotuvchi" | "Sotib oluvchi" |
|---|---|
| "Imonabegim shoes" MCHJ<br>O'zbekiston Respublikasi Andijon v<br>Andijon sh. M Ermatov ko'chasi 32 uy;<br>H/R: 2020 8000 6050 7247 6001;<br>"IpakYo`li" bank Andijon filiali.<br>Kod: 01120<br>INN 306 399 377 | «UzDong Won Co» AJ QK<br>O'zbekiston Respublikasi Andijon v<br>Asaka shahar Farg'ona ko'cha №57 uy<br>H/R: 2021 4000 3005 7280 0001 ;<br>"Asaka Bank" Asaka bo'limi;<br>INN 202 128 093<br>OKOHX: 13141<br>MFO 00073<br>TEL: (374) 233-13-58 |
| _______________ **Axmedov D.**<br>"Imonabegim shoes" MCHJ<br>Direktori. | _______________ **Sotiboldiyev Q.N.**<br>«UzDong Won Co» AJ QK<br>Bosh direktori |

| КЕЛИШИЛДИ | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| ИЖРОЧИ | БЎЛИМ БОШЛИҒИ | ҲУҚУҚШУНОС | ИҚТИСОДЧИ | БОШ ХИСОБЧИ | БОШ ДИРЕКТОР ЎРИНБОСАРИ |
| | | | | | |